

TILLARNI O'RGANISH VA MADANIYATLARARO MULOQOTNING IJTIMOIY AHAMIYATI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-724-728>

Mohira Jumanova,
O'zJOKU 1-bosqich magistrant
e-mail:mokhira1702@mail.ru

ANNOTASIYA

Maqolada muallif tomonidan til o'rganish orqali shaxs o'z madaniyatini shakllantirishi, insoniy fazilatlarini takomillashtirishi, boshqa xalq madaniyatini tushunish orqali hozirgi davrda muhim bo'lgan tolerantlik fazilatlariga ega bo'lishi mumkinligi yoritilgan

Kalit so'zlar: til, madaniyat, tillarni o'qitish va o'rganish, madaniyatlararo muloqot, etnologiya va madaniy antropologiya.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF LANGUAGE LEARNING AND INTERCULTURAL COMMUNICATION

ABSTRACT

The article explains that through language learning, a person can form his own culture, improve his human qualities, and acquire the qualities of tolerance that are important in modern times through understanding other people's cultures.

Keywords: language, culture, language teaching and learning, intercultural communication, ethnology and cultural anthropology.

Olimlar “madaniyat” atamasini turli nuqtai nazardan izohlaydilar. Edvard Xoll madaniyatni “odamlarning hayot tarzi, ular tomonidan o'rganilgan xulq, munosabatlar va moddiy buyumlar namunalari yig'indisi” [E.Xoll, 1971: 235] sifatida ta'riflaydi. S.Shuls madaniyatni qo'yidagicha tasvirlab beradi: “Madaniyat insonlarga hayot va o'zlarini tushunishga yordam berish maqsadida umumiy odatlarga ega bo'lgan insonlar guruhining bilim va e'tiqodini o'z ichiga oladi. Barcha insonlarda shunga o'xshash ongosti bilimi mavjud, shu bilan birga, insonlar o'z tili haqidagi bilim sohiblari hisoblanadi” [S.Shuls, 2003: 32]. K.M.Schmitt va E.Ferning fikrlariga ko'ra, madaniyat “muayyan muhitda o'sha muhitga oid bo'lgan boshqa inson kabi o'zini tutish va haraqat qilishni eplash maqsadida inson sezishi va

bajarishi kerak bo‘lgan narsalarning yig‘indisidir” [K.M.Shmitt, E.Fer, 1999: 819]. P.Nyumark ta’kidlashicha, madaniyatni “muayyan tildan ifodalash vositasi sifatida foydalanilgan jamiyatga xos hayot tarzi va uning namoyon bo‘lishi” [P.Nyumark, 1998: 94] mazmunida ta’riflasa bo‘ladi. Shunday qilib, madaniyat – insonlarni tarix, an’analar va qadriyatlarga muvofiq farqlovchi har qanday mamlakatning yagona ramzi yoki xususiyatlarning majmuasidir. Madaniyat inson hayotida hamda jamiyat taraqqiyotida ahamiyatli rolni o‘taydi.

Keltirilgan jumlalardan ayonki, madaniyat va til tushunchalari yonma-yon va ajralmas tushunchalar hisoblanadi. Demak, tillarni o‘qitish va o‘rganishda madaniyatni o‘rgatish, urf-odat va an’analarni hisobga olish asosiy talablardan biridir. Barchamizga ma’lumki, hozirgi davrda chet tillarini o‘rganish nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa deya e’tirof etilmoqda. Tilni bilish bu o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalq vakillari bilan to‘liq muloqotga kirisha oladi, degani emas. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, til va madaniyat, xalqning an’analari, kundalik turmush tarzi tilni o‘rganish, tilda gapirish va tilni tushunishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda esa madaniyatlararo muloqotni shakllantirish hozirgi kundagi tillarni o‘rganishda e’tibor qaratilishi muhim bo‘lgan omil hisoblanadi.

Madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda har bir shaxsning alohida ijtimoiy va psixologik xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Bu xususiyatlar esa “faqatgina bir-biriga taqqoslash orqaligina namoyon bo‘ladi va bu qiyoslashni amalga oshirish uchun madaniy aloqa bo‘lishi kerak” [Azzi va Klein, 1998: 77]. Madaniy muloqot har bir shaxsning o‘ziga xos va shu bilan birga boshqa shaxslarga, boshqa millat vakillariga o‘xhash ekanligini namoyon qilishga xizmat qiladi va shu orqali inson jamiyatda o‘z mavqeい va o‘rnini belgilab oladi. Til o‘rganish orqali shaxs o‘z madaniyatini shakllantirishi, insoniy fazilatlarini takomillashtirishi, boshqa xalq madaniyatini tushunish orqali hozirgi davrda muhim bo‘lgan tolerantlik fazilatlariga ega bo‘lishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotning shaxsga bo‘lgan ijobiy va salbiy ta’sirlari yuzasidan izlanishlar o‘tgan asrning 60-yillarida Amerika olimlari tomonidan boshlangan. Muloqotga kirishishni to‘g‘ri amalga oshirish uchun o‘z madaniyatini boshqa xalq madaniyati bilan faqatgina solishtirib qolmasdan, o‘sha madaniyatning o‘xhashligi va farqlari, go‘zalligi va qo‘polligi, yaqinligi va o‘z madaniyatidan yiroqligi o‘rtasida mutanosiblikni belgilab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fransuz sosiologi Karmel Kamilyerining izlanishlari madaniyatlararo

muloqot jarayonidagi aynan mana shu jihatlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan omillarni hisobga olib aytishimiz mumkinki, chet tillarini o'rganish bu insonlar va turli millatlar o'rtasidagi mavjud to'siq va chegaralarni bartaraf etishga, yer yuzidagi yashovchi barcha xalq vakillarining bir-birlarini to'g'ri tushunishlariga, hamjihatlik va o'zaro murosada yashashlariga ham xizmat qiladi. Shu sababdan, ingliz tilini o'rgatishda va o'rganishda ingliz tilida so'zlashuvchi barcha davlatlarda yashovchi xalqlarning urf-odatlarining xilma-xil ekanligini, masalan, Buyuk Britaniya va AQSHdagi madaniyat bir xil emasligi, fransuz tilini o'rganishda esa Fransiya madaniyati, Kanada va Afrika davlatlari madaniyatlarini bir-biridan to'laligicha farq qilishligini e'tirof etishlik talab etiladi.

Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda "madaniyatlararo kompetentlik" tushunchasiga urg'u beriladi. Bu atama orqali shaxsning ijtimoiy ko'nikma va layoqatlari kompleksi tushuniladi va uning yordamida shaxs o'zga madaniyat vakillari bilan ham ijtimoiy-maishiy, ham kasbiy o'zaro aloqa jarayonida muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshiradi. Madaniyatlararo muloqotni shakllantirish o'zga madaniyat vakillarining madaniy o'ziga xos stereotip shakllarini tushunish va qabul qilish bilan bog'liq, shaxsning o'z xulq-atvori o'zgarishiga olib keladigan individual rivojlanish jarayoni tushuniladi. Madaniyatlararo muloqotni o'qitish quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bir necha bosqichlardan iborat jarayon sifatida qaraladi [Sh.Xolmurodova, 2020: 12]:

1. inson xulq-atvorining madaniy spesifikasini anglash (madaniyatni tushunish);
2. o'z madaniyatiga xos bo'lgan stereotiplar tizimidan xabardor bo'lish (o'z-o'zini anglash);
3. o'zaro muloqotga kirishish jarayonida madaniy omillar ahamiyatini anglash (madaniyatlar to'qnashuvidan xabardor bo'lish).

Ushbu maqsadga erishish uchun til o'rganish jarayonida guruh bo'lib ishslash, turli mashq va rolli o'yinlar orqali kundalik turmushda uchrashi mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga keltiriladi. Bundan tashqari, etnologiya va madaniy antropologiyada keng tarqalgan avtobiografik bayon qilish metodidan ham foydalilaniladi: murabbiy va til o'rganuvchilar madaniyatlararo to'qnashuvlar bilan bog'liq o'z hayotiy kechinmalarini so'zlab beradilar, bunda ular o'zga madaniyatning yotligini his qilganlari, hatto "madaniy shok"ni boshdan o'tkazganlarini izohlab berishadi. Bunday epizodlar hayotiy bo'lganligi sababli madaniyatlararo muloqot muammolarini tasvirlash uchun qo'l keladi. Bunday usullar holatga kirish va

madaniyatlararo ziddiyatlarda o‘zlarini sinab ko‘rishlari va his qilishlariga imkon beradi. Ushbu “haqiqiy hayotiy vaziyatni tiklash” antropologik usuli E. Xoll tomonidan o‘quv jarayonida madaniyatlararo to‘qnashuvlarni mashq qilish uchun foydalanilgan. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, til ijtimoiy hodisa sifatida insonlar orasidagi muloqotni yo‘lga qo‘yishda, ma’naviy yuksalish, ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishish imkonini beradi. Bularning natijasida til (hodisa sifatida) bir hududda yashaydigan turli millatlarning o‘zaro muloqoti, turli munosabatlari va oqibatda madaniyatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yadi va shu jihatdan ham tillarni o‘rganishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy ahamiyati katta.

REFERENCES

1. AZZI Assaad E. et KLEIN O. *Psychologie sociale et relations intergroupes*, Paris, Dunod. 1998.
2. Hall E. The Paradox of Culture // In the Name of Life. Essays in Honor of Erich Fromm. New York, 1971.
3. Юсупова, Ф. М. (2021). Об особенностях обучения русскому языку в условиях иного национального окружения. Academic research in educational sciences, 2(6), 1324-1329.
4. E.T. Hall. The silent language. – New York: Anchor Books, 1990.
5. Schultz S. Managing corporate communication: a cross-cultural approach. Macmillan International Higher Education, 2003.
6. K.M. Schmitt and E. Fehr. A theory of fairness, competition and cooperation. The quarterly journal of economics, 1999. – Volume 114. - № 3.
7. P. Newmark. Multilingual matters. Language arts and disciplines, 1998.
8. Xushmurodova Sh.Sh. Madaniyatlararo muloqot muammosiga lingvomadaniy yondashuv (o‘zbek va ingliz tillari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati, Samarqand – 2020.
9. Хасанова, Гулсанам Хусановна. "Ўзбекистон, Япония ва Жанубий Корея касб-хунар таълими тизимларининг ўзига хос хусусиятлари." Современное образование (Узбекистан) 3 (2018).
10. ХАСАНОВА Г. X. General and professional education systems of Uzbekistan and Japan: a comparative analysis //Иностранные языки в Узбекистане. – 2020. – №. 1. – С. 83-97.

11. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
12. Хашимова С. НЕКОТОРЫЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УДВОЕНИЯ В ЯПОНСКОМ ЯЗЫКЕ. - Страны. Языки. Культура. – С. 334-338.
13. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
14. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想 "CHINESE DREAM" AND 美 命 运 共 同 " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"-A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
15. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
16. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.